

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL TA'LIM JARAYONINI TASHKIL QILISH MUAMMOLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq dolzarb muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan bo'lib, maqolada mustaqil ta'limni boshqarishning metodik mexanizmlari, talabalar faolligi va o'zlashtirish darajasiga ta'sir etuvchi pedagogik omillar aniqlashtirildi. Olingan tahlil natijalari asosida oliy ta'lim muassasalari ta'lim amaliyotida mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy echimlar taklif etildi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, mustaqil ta'lim, oliy ta'lim, ta'lim sifati, mexanizm, usul, metod, metodika, yondashuv, talaba faolligi, sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, monitoring.

**ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

**Аннотация.** В статье представлены актуальные проблемы организации процесса самостоятельного обучения в современных высших учебных заведениях, а также предложения и рекомендации по их устранению. В статье определены методические механизмы управления самостоятельным обучением, педагогические факторы, влияющие на активность студентов и уровень освоения материала. На основе результатов анализа предложены научно-практические решения, направленные на повышение эффективности самостоятельного обучения в образовательной практике высших учебных заведений.

**Ключевые слова:** Образование, самостоятельное обучение, высшее образование, качество образования, механизм, метод, методология, подход, студенческая деятельность, искусственный интеллект, цифровое обучение, мониторинг.

**PROBLEMS OF ORGANIZING AN INDEPENDENT EDUCATIONAL PROCESS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

**Annotation.** The article presents current problems related to the organization of the independent learning process in higher education institutions today, as well as proposals and recommendations for their elimination. The article identifies methodological mechanisms for managing independent learning, pedagogical factors affecting student activity and the level of mastery. Based on the results of the analysis, scientific and practical solutions aimed at increasing the effectiveness of independent learning in the educational practice of higher education institutions were proposed.

**Keywords:** Education, independent learning, higher education, quality of education, mechanism, method, methodology, approach, student activity, artificial intelligence, digital learning, monitoring.

**Kirish.** Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarga bilim berishda talabani nafaqat qabul qiluvchi sifatida qarashga yo'naltirilgan, balki talabani mustaqil, tizimli va chuqur o'zlashtirishini ta'minlaydigan yangicha metodikalarni ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayoniga ilmiy asosda tadbiq etish masalasi dolzarb va katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mustaqil ta'lim talabalarni faollashtirish, mustaqil fikrlash va tanqidiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda asosiy ta'limiy jarayon sifatida qaraladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanishi oliy ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda yangi

imkoniyatlar yaratmoqda. Sun'iy intellekt yordamida talabalar o'zlashtirish darajasini shaxsiylashtirilgan tarzda monitoring qilish, interaktiv ta'lim resurslarini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish metodikasi va uning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba metodi asosiy tadqiqot vositasi sifatida qo'llanildi. Tajriba metodi orqali talabalar mustaqil faoliyatini nazorat qilish va uning o'quv natijalariga ta'siri baholandi. Mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq dolzarb muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha metodik echimlar ishlab chiqish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

*Tahliliy metod* - mustaqil ta'lim jarayonining amaldagi holati, uni tashkil qilishda talabalar faolligi va o'zlashtirish darajasi tahlil qilish, mavjud pedagogik muammolar aniqlash;

*Taqqoslash va solishtirish metodi* - oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limning samarali metodik yondashuvlari va pedagogik strategiyalari solishtirish;

*Ilmiy prognoz va tavsiya metodi* - tahlilga asosan olingan natijalar asosida mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil qilish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishlariga nazar solamiz:

M.Konwels mustaqil ta'limni ta'lim oluvchining o'z o'quv jarayonini boshqarishi, o'z ehtiyoj va maqsadlariga muvofiq resurslar tanlashi sifatida ta'riflaydi. Olim tadqiqotiga ko'ra, mustaqil ta'lim tushunchasining quyidagi asosiy jihatlarini ajratib beradi:

*O'z-o'zini boshqarish:*

Ta'lim oluvchi o'z ta'lim jarayonini rejalashtiradi, maqsad va vazifalarni belgilaydi.

Ta'lim oluvchi qaysi mavzularni chuqurroq o'rganish kerakligini aniqlaydi.

*Maqsadlarni belgilash:*

O'quv jarayoni ta'lim oluvchining individual ehtiyojlari va qiziqishlarini o'quv maqsadlariga muvofiq shakllantiriladi.

*Kontentlarni tanlash va boshqarish:*

Talaba ta'lim olish uchun kerakli o'quv materiallarini, usullarni va vositalarni mustaqil tanlaydi.

*Mas'uliyat va mustaqillik:*

Ta'lim oluvchi o'z o'rganish jarayoni natijasi uchun mas'uliyati.

Ta'lim oluvchi faqat yo'l-yo'riq ko'rsatadi, lekin bilimni beruvchi asosiy subyektdir.

Boshqa olimlarning tadqiqotlarida mustaqil ta'limning talabalar faolligi, ularning o'zlashtirish darajasi va o'quv materiallarini amaliyotda qo'llash masalalariga to'xtalib o'tgan. Tadqiqotlarga ko'ra, mustaqil ta'lim tushunchasining quyidagi asosiy jihatlarini ajratib berilgan:

*Talabalar faolligi:*

Talabaning mustaqil ta'lim jarayonida qanchalik darajada faol ishtirok etishi, berilgan vazifalarni bajarishga bo'lgan faolligi.

Faollik sifatida o'quv natijalarini va bilimni chuqur o'zlashtirishni belgilovchi asosiy omil sifatida qaralishi.

*O'zlashtirish darajasi:*

Mustaqil ta'lim olish orqali talabalar bilim va ko'nikmalarni qanchalik samarali o'zlashtirishi.

Talabalar olgan bilimni faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatini ham o'z ichiga oladi.

*O'quv materiallarini amaliyotda qo'llash:*

Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni real vaziyatlarda yoki amaliy mashg'ulotlarda qo'llay olish qobiliyati.

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini tashkil qilish metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni o'rganib, bugungi kunda ushbu ta'limiy jarayonni amalga oshirishda muammo sifatida qaraladigan jihatlariga to'xtalib o'tamiz:

*Mustaqil ta'limni boshqarishning aniq metodik mexanizmlarini ishlab chiqish* - Ko'plab tadqiqotlarda mustaqil ta'limning ahamiyati va samaradorligi ta'kidlangan, ammo uni qaysi bosqichlarda qaysi algoritmlar asosida, qanday nazorat qilish va teskari aloqa mexanizmlari orqali tashkil etish tizimlashtirilmagan.

*Talabalar individual xususiyatlarini hisobga olish masalasi* - Barcha pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, aksariyatida mustaqil ta'lim umumiy yondashuv asosida qaraladi. Talabalarning bilim darajasi, o'zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va raqamlashtirish kompetensiyasiga etarlicha e'tibor qaratilmagan.

*Sun'iy intellekt vositalarining metodik integratsiyasi* - Sun'iy intellekt asosida mustaqil ta'lim jarayonini tashkil qilish, monitoring qilish va baholash mexanizmlari alohida ilmiy model sifatida etarli ishlab chiqilmagan.

*Mustaqil ta'lim natijalarini baholash mezonlarining aniqligi* - Mustaqil ta'lim natijalarini kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va sifat darajasi asosida baholash masalalari chuqur o'rganilmagan.

*O'qituvchining metodik roli va vazifalarining aniq belgilanishi* - Ta'lim jarayonida o'qituvchi "yo'naltiruvchi" sifatida ta'riflanadi, biroq uning maslahatchi, tahlilchi, baholovchi va fastilator sifatidagi metodik vazifalari aniq belgilanmagan.

*Mustaqil ta'lim va dars mashg'ulotlari o'rtasidagi uzviylik* - Mustaqil ta'lim ko'pincha darsdan tashqari faoliyat sifatida qaraladi, uni auditoriya mashg'ulotlari bilan integratsiyalashgan yagona didaktik tizim sifatida tashkil etish masalasi kam tadqiq etilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonining nazariy asoslari etarlicha yoritilgan bo'lsa-da, uni amaliyotga tatbiq etish, boshqarish va baholash mexanizmlarini takomillashtirishga ehtiyoj mavjud. Mazkur holat mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda yangi yondashuvlar va samarali metodik echimlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini quyidagi bosqichlar asosida tashkil etish taklif etiladi:

- rejalashtirish (maqsad va natijalarni aniqlash);
- amalg oshirish (mustaqil topshiriqlar, loyiha va keyslar);
- monitoring (oraliq nazorat va teskari aloqa);
- refleksiya va baholash.

Bunday yondashuv mustaqil ta'limni tartibsiz faoliyatdan boshqariladigan didaktik jarayonga o'tkazadi.

Talabalarning bilim darajasi, o'zlashtirish darajasi va motivatsiyasini inobatga olgan holda differensial topshiriqlar, moslashuvchan o'quv materiallari va individual o'quv traektoriyalarini ishlab chiqish kabi yondashuvlar mustaqil ta'lim samaradorligini oshiradi va barcha talabalar uchun teng imkoniyat yaratadi.

Sun'iy intellekt imkoniyatlaridan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish taklif etiladi:

- talabani o'rganish faolligini monitoring qilish;
- avtomatlashtirilgan teskari aloqa va tavsiyalar berish;
- mustaqil topshiriqlarni moslashtirish.

Bu yondashuv esa mustaqil ta'limni raqamli va intellektual boshqaruv darajasiga olib chiqadi.

Baholash faqat test bilan cheklanmasdan:

- bilim;
- ko'nikma;
- amaliy faoliyat;

refleksiya kabi ko'nikmalar asosida olib borilishi taklif etiladi. Bu baholashning obyektivligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishda:

- ma'ruza oldi tayyorgarlik;
- seminar va amaliy mashg'ulotlar bilan uzviy bog'lash;

loyiha va keyslar orqali mustahkamlash kabi omillarga e'tibor qaratish lozim. Natijada, mustaqil ta'lim darsdan tashqari faoliyat emas, balki yagona didaktik mexanizmga aylanadi.

#### **Xulosa**

Maqolada keltirilgan muammolarni bartaraf qilish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini boshqarishning metodik mexanizmini ishlab chiqish, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchan ta'lim texnologiyalarini joriy etish hamda sun'iy intellekt vositalari asosida monitoring va baholash tizimini yaratish taklif etiladi. Ushbu yondashuv mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Knowles, M. S. (1975). Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers.
2. Выготский, Л. С. Педагогическая психология. - Москва: Педагогика, 1999.
3. Леонтьев, А. Н. Проблемы развития психики. - Москва: Изд-во МГУ, 1981.
4. Nasimov, R. Pedagogik texnologiyalar va ta'lim jarayonini loyihalash. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
5. Nasimov, R. O'quv jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish metodlari. - Respublika ilmiy jurnali, 2021.
6. Mo'minova, M. Talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. - Oliy ta'lim jurnali, 2020.
7. Mollick, E. "Using AI to Enhance Teaching and Learning". - Wharton Interactive Research Papers, 2023.